

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA**  
**O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-mayda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 29-mayda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat **kodeksiga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 1, 3-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165-modda; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 314-modda, № 12, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 12, 656-modda; 2007-yil, № 4, 158, 166-moddalar, № 6, 248-modda, № 9, 416, 422-moddalar, № 12, 607-modda; 2008-yil, № 4, 187, 188, 189-moddalar, № 7, 352-modda, № 9, 485, 487, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 128-modda, № 9, 329, 334, 335, 337-moddalar, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 5, 176, 179-moddalar, № 9, 341-modda, № 12, 471, 477-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430-modda, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 471-modda, № 9, 592-modda, № 11, 787-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 204-modda, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 14-moddalar, № 2, 142, 144-moddalar, № 3, 217-modda, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) **186<sup>3</sup>-modda** quyidagi mazmundagi oltinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Ushbu moddaning birinchi — to'rtinchi qismlari tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalari bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirishda qo'llanilmaydi";

2) quyidagi mazmundagi 202<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**“202<sup>1</sup>-modda. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish**

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish, ya’ni g’arazli yoki boshqa past niyatlarda ularni qiyonoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o’limiga yoki mayib bo‘lishiga olib kelsa, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo’llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa,—

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

**3) 251<sup>1</sup>-modda:**

**birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta’sir qiluvchi yoxud zaharli moddalarni o’tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o’tkazish yoxud ularni o’tkazish maqsadida tayyorlash yoxud qayta ishlash uchun asbob-uskunalarni tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo‘natish yoki o’tkazish,—

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

ikkinci qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

uchinchchi qismining **sanksiyasidagi** “besh” degan so‘z “yetti” degan so‘z bilan almashtirilsin;

**4) sakkizinchchi bo‘lim:**

“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, shuningdek tarkibida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud bo‘lgan dori vositalari bilan qonunga xilof ravishda foydalanishdagi ko‘p miqdor” degan atama quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xi洛f ravishda muomalada bo‘lishdagi ko‘p miqdor — tegishli davlat organi tomonidan belgilanadi”;

quyidagi mazmundagi atama bilan to‘ldirilsin:

“Kuchli ta’sir qiluvchi moddalar bilan qonunga xi洛f ravishda muomalada bo‘lishdagi yoki tarkibida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud bo‘lgan dori vositalarini retsept bo‘yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzishdagi ko‘p miqdor — tegishli davlat organi tomonidan belgilanadi”.

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2013-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual **kodeksiga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 2, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 269-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 11, 23-moddalar, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 418-modda; 2006-yil, № 6, 261-modda; 2007-yil, № 4, 166-modda, № 6, 248, 249-moddalar, № 9, 422-modda, № 12, 594, 595, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 177, 187-moddalar, № 9, 482, 484, 487-moddalar, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 136-modda, № 9, 335-modda, № 12, 469, 470-moddalar; 2010-yil, № 6, 231-modda, № 9, 334, 336, 337, 342-moddalar, № 12, 477-modda; 2011-yil, № 4, 103, 104-moddalar, № 9, 252-modda, № 12/2, 363-modda; 2012-yil, № 1, 3-modda, № 9/2, 244-modda, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 385-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 5-moddalar, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430, 431-moddalar, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469-modda, № 9, 589, 592-moddalar, № 10, 671-modda, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 881, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 204-modda, № 5, 296-modda, № 12, 689-modda; 2021-yil, № 1, 5, 11, 13, 14-moddalar, № 2, 142, 144-moddalar, 4-songa ilova) quyidagi qo‘srimcha va o‘zgartishlar kiritilsin:

1) 39<sup>1</sup>-modda **birinchi qismining**:

**9-bandı** “doir ishlar” degan so’zlardan keyin “shuningdek elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish bilan bog’liq jinoyatlar to’g’risidagi ishlar” degan so’zlar bilan to’ldirilsin;

**10-bandidagi** “shuningdek elektr, issiqlik energiyasi, gaz, suvdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog’liq bo’lgan ishlar bo’yicha” degan so’zlar chiqarib tashlansin;

2) 381<sup>2</sup>-modda **birinchi qismining**:

**2-bandidagi** “185<sup>2</sup>” raqami chiqarib tashlansin;

**3-bandidagi** “186-moddasi birinchi qismida” degan so’zlar “185<sup>2</sup>-moddasida, 186-moddasi birinchi qismida” degan so’zlar bilan almashtirilsin.

**3-modda.** O’zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi **kodeksiga** (O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-

modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) **72-modda:**

nomining o'zbekcha **matnidagi** "zaxiralarini" degan so'z "resurslarini" degan so'z bilan almashtirilsin;

birinchi qismining **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Suvlarni ifloslantirish yoki bulg'atish, suvto'plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo'l qo'yish shartlari to'g'risidagi talablarni buzish";

2) 74-modda birinchi qismining **dispozitsiyasidagi** "limitlarini buzish, shuningdek" degan so'zlar "limitlarini buzish, suvlarning hamda suv obyektlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarish, shuningdek" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) quyidagi mazmundagi 79<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**"79<sup>1</sup>-modda. O'simlik dunyosi obyektlarini yig'ish, tayyorlash va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlarini buzish**

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik va dorivor xomashyosini, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig'ish hamda tayyorlashning, shuningdek o'simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanishning belgilangan tartibini hamda shartlarini buzish,—

fugorolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi";

4) quyidagi mazmundagi 86<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**"86<sup>1</sup>-modda. Ozon qatlamiga zararli ta'sir ko'rsatishning oldini olishga doir talablarni buzish**

Obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash, xo'jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish chog'ida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ozonni buzuvchi moddalardan, tarkibida ozonni buzuvchi moddalar mavjud bo'lgan asbob-uskunalar va texnik qurilmalardan foydalanish hamda ularni qo'llashni tartibga solish choralarini ko'rmaslik, shuningdek ozonni buzuvchi moddalarining hisobini yuritmaslik, ularning ozon uchun xavfsiz moddalar bilan almashtirilishini ta'minlamaslik, ularning atmosfera havosiga chiqarilishiga yo'l qo'yish, retsirkulatsiyani (ozonni buzuvchi moddalardan qayta foydalanish maqsadida ularni birlamchi tozalashni) amalga oshirmaslik,—

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,—

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi";

##### 5) **88-modda:**

birinchi qismining **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarish chog'ida yonilg'i moddalarni va qurilish materiallarini bir joyga to'plashda, ushbu moddalar va materiallarni, shuningdek yoqilg'i hisoblanmaydigan materiallarni yoqishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik, maxsus texnik qurilmalarni qo'llamasdan bitumni eritish";

quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,—

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi";

##### 6) **89-modda:**

nomi “boshqa dorilarni” degan so’zlardan keyin “shuningdek kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni hamda bug’lanuvchan birikmalarni” degan so’zlar bilan to’ldirilsin;

birinchi qismining **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O’simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o’sishini tezlashtiruvchi vositalarni, mineral o’g’itlarni hamda boshqa dorilarni, shuningdek kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni va bug’lanuvchan birikmalarni tashish, saqlash, ulardan foydalanish, ularni qo’llash hamda ulardan bo’shagan idishlarni zararsizlantirish qoidalarini tuproqning, suvning, atmosfera havosining ifloslanishiga yoki o’simliklar, hayvonot dunyosi yo’q qilib yuborilishiga olib kelishi mumkin bo’lgan tarzda buzish”;

7) **96-modda:**

birinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi”;

ikkinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi”;

8) 111-moddaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo’lish, ya’ni ularni g’arazli yoki boshqa past niyatlarda qiyonoqqa solish yoki ularga azob berish,—

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik ma’muriy jazo chorasi qo’llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo’lsa yoxud ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarlik voyaga yetmagan shaxs hozirligida sodir etilgan bo’lsa yoki hayvonlarning o’limiga yoxud mayib bo’lishiga olib kelsa,—

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o’n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o’n besh sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo’ladi”;

9) 133-modda birinchi qismining **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Transport vositalari haydovchilarining yo‘l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelsa, bundan jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yetkazilishiga olib kelmagan yo‘l-transport hodisasi sodir etilganda yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilar tomonidan yo‘l-transport hodisasi to‘g‘risida xabarnoma tuzilgan hollar mustasno”;

10) 134-moddaning **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Transport vositalari haydovchilarining yo‘l harakati qoidalarini buzishi transport vositalari, yo‘l harakatini tartibga soluvchi vositalar yoki boshqa mol-mulk shikastlanishiga olib kelsa, lekin ancha miqdorda moddiy zarar yetkazmasa, bundan yo‘l harakatini tartibga soluvchi vositalar yoki boshqa mol-mulk shikastlanishiga olib kelmagan yo‘l-transport hodisasi sodir etilganda yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilar tomonidan yo‘l-transport hodisasi to‘g‘risida xabarnoma tuzilgan hollar mustasno”;

11) **165<sup>1</sup>-modda** quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Ushbu moddaning birinchi qismi tarkibida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud bo‘lgan dori vositalari bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirishda qo‘llanilmaydi”;

12) 261-moddaning **birinchi qismidagi** “80, 81, 82, 83, 84-moddalarida, 85-moddasida (bundan sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish deb hisoblanuvchi, atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta’sir ko‘rsatish, biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash mustasno), 86” degan so‘zlar “79<sup>1</sup>, 80, 81, 82, 83, 84-moddalarida, 85-moddasida (bundan sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish deb hisoblanuvchi, atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta’sir ko‘rsatish, biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash mustasno), 86, 86<sup>1</sup>” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

13) **266<sup>4</sup>-moddaning:**

**nomidagi** “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi” degan so‘zlar “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

**birinchi qismidagi** “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi” degan so‘zlar “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik

suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

**ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi organlari nomidan ma’muriy huquqbazarliklar to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqish va jarima solish tariqasida ma’muriy jazo choralarini qo’llashga quyidagilar haqli:

O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining boshlig’i va uning o’rinbosari, bo’lim boshliqlari, bosh mutaxassislari;

O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hududiy inspeksiyalarining bosh inspektorlari va inspektorlari”.

**4-modda.** O’zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Notariat to’g’risida”gi 343-I-sonli Qonuni (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 2, 42-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda; 2006-yil, № 9, 498-modda; 2007-yil, № 12, 608-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2010-yil, № 9, 335-modda; 2012-yil, № 4, 105-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda; 2020-yil, № 1, 3-moddalar; 2021-yil, 4-songa ilova) 79-moddasining **to’rtinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qarzdorning nomi va manzili, qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O’zbekiston Respublikasi fuqarolari bo’limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to’lovchi identifikatsiya raqami”.

**5-modda.** O’zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to’g’risida”gi 258-II-sonli Qonuni (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, № 9-10, 169-modda; O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 8, 367-modda, № 12, 598-modda; 2008-yil, № 4, 184, 187-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda; 2010-yil, № 9, 337, 340-moddalar; 2012-yil, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda, № 12, 452-

modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar; 2019-yil, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 7, 389-modda, № 8, 469-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 8-moddasi birinchi qismininng **4-bandı** “ish joyi” degan so’zlardan keyin “qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami (O’zbekiston Respublikasi fuqarolari bo’limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to’lovchi identifikasiya raqami” degan so’zlar bilan to’ldirilsin.

**6-modda.** O’zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi O’RQ-155-sonli **Qonuniga** (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 4, 191-modda; 2010-yil, № 9, 337-modda; 2011-yil, № 4, 99-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2020-yil, № 11, 652-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo’shimcha va o’zgartishlar kiritilsin:

1) **3-modda:**

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to’ldirilsin:

“yo’l-transport hodisasi to’g’risidagi xabarnoma — sodir etilgan yo’l-transport hodisasi haqida sug’urtalovchiga xabar berish uchun yo’l-transport hodisasi sodir etilgan joyda yo’l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda to’ldiriladigan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi faktini tasdiqlovchi hujjat”;

**uchinchi — o’n ikkinchi xatboshilar** tegishinchada to’rtinchi — o’n uchinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2) 15-moddaning **oltinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Sug’urta polisi blankasining namunasi, uni tayyorlash tartibi, maxsus davlat belgisining shakli va uni transport vositasiga joylashtirish tartibi, shuningdek yo’l-transport hodisasi to’g’risidagi xabarnoma blankasining namunasi hamda uni tuzish tartibi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”;

3) 19-moddaning **ikkinchi qismi**:

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to’ldirilsin:

“yo’l-transport hodisasi to’g’risidagi xabarnoma tuzilgan vaqtdan e’tiboran uch ish kuni ichida mazkur xabarnomani ushbu Qonun 20<sup>2</sup>-moddasining ikkinchi qismida ko’rsatilgan materiallar va hujjatlarni ilova qilgan holda sug’urtalovchiga taqdim etishi”;

beshinchi xatboshisi oltinchi xatboshi deb hisoblansin;

4) quyidagi mazmundagi 20<sup>1</sup>va 20<sup>2</sup>-moddalar bilan to'ldirilsin:

**"20<sup>1</sup>-modda. Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani tuzish uchun asoslar**

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma yo'l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilar tomonidan ichki ishlar organi xodimlarining ishtirokisiz tuziladi. Xabarnomani tuzish uchun bir vaqtning o'zida quyidagilar asos bo'ladi:

yo'l-transport hodisasi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yetkazilishiga yoxud yo'l harakatini tartibga soluvchi vositalar yoki boshqa mol-mulk shikastlanishiga olib kelmagan bo'lsa;

yo'l-transport hodisasida ishtirokchi bo'lgan haydovchilardan biri o'z aybiga to'liq iqror bo'lsa;

yo'l-transport hodisasi piyoda ishtirokisiz sodir etilgan bo'lsa;

yo'l-transport hodisasi ikkita transport vositasi (shu jumladan tirkamali transport vositalari) to'qnashuvi natijasida ro'y bergan hamda faqat ushbu transport vositalariga shikast yetkazilgan bo'lsa;

transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi yo'l-transport hodisasi sodir etilguniga qadar sug'urta qilingan bo'lsa;

yo'l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilarda haydovchilik guvohnomasi, transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma (bundan ishonchnoma talab etilmaydigan hollar mustasno), yo'l varaqasi (qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda) mavjud bo'lib, mazkur hujjatlarning amal qilish muddati o'tmagan bo'lsa;

yo'l-transport hodisasi ishtirokchilari bo'lgan haydovchilarda mastlik holati bo'lmasa;

yo'l-transport hodisasi natijasida transport vositalarining shikastlanishi holatlari, shuningdek transport vositalarining shikastlangan qismlari tavsiflari va ro'yxati yo'l-transport hodisasi ishtirokchilari o'rtaida kelishmovchiliklarni (nizolarni) keltirib chiqarmasa.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan bittasi mavjud bo'lmagan taqdirda, tuzilgan yo'l-transport hodisasi haqidagi xabarnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma haqiqiy emas deb topilgan taqdirda yoxud sug'urtalovchi tomonidan ishni ko'rib chiqish jarayonida aybdor taraf o'zgarganligi fakti aniqlangan

taqdirda (aybdorlik videoyozuvlар yoxud ko'rik va (yoki) mustaqil ekspertiza natijalari asosida yaqqol namoyon bo'lganda) sug'urtalovchi yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani va unga ilova qilingan hujjatlarni, shuningdek ko'rik va (yoki) mustaqil ekspertiza natijalarini (aybdor taraf o'zgarganligi fakti aniqlangan hollarda) o'sha kunning o'zida ichki ishlar organlariga yuboradi.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani ko'rib chiqish chog'ida aybdor taraf o'zgarganligi fakti aniqlanishi va boshqa tarafning aybini tasdiqlovchi materiallar yoki videoyozuvlар yoxud ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan ko'rik va (yoki) mustaqil ekspertiza natijalari bo'limganda sug'urtalovchining yig'ilgan hujjatlarni ichki ishlar organlariga yuborishi sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashni asossiz rad etgan deb baholanadi.

## **20<sup>2</sup>-modda. Transport vositalari egalarining va sug'urtalovchilarining yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani tuzish chog'idagi harakatlari**

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma yo'l-transport hodisasi ishtirokchisi bo'lgan hodisa sodir bo'lganidan keyin haydovchilar tomonidan darhol joyning o'zida va ikki nusxada tuziladi.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma haydovchilarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilgan sug'urtalovchilarga quyidagi materiallar va hujjatlar ilova qilingan holda uch ish kuni ichida yuboriladi:

yo'l-transport hodisasi joyining (avtotransport vositalari to'qnashgan joyining vaziyat o'zgartirilmagan holdagi), transport vositalarining fotosurati va (yoki) videoyozuvi, transport vositalarining shikastlangan qismlarining fotosurati va (yoki) videoyozuvi;

haydovchilarining sug'urta hodisasini to'g'ridan to'g'ri hal etish to'g'risidagi arizalari;

yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joydagi yoki unga yaqin joydagi narkologik dispanserda yoxud sog'liqni saqlash organlari tomonidan belgilangan tuman va shahar davolash-profilaktika muassasasida yo'l-transport hodisasi haqida xabarnoma tuzilgan paytdan e'tiboran to'rt soat ichida haydovchilarining mastlik holatini aniqlash bo'yicha tibbiy tekshiruv o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnomasi;

yo'l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilarining transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarining, transport vositalari ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi hujjatlarining ko'chirma nusxalari, shuningdek sug'urta polisining ko'chirma nusxalari.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomaning ko'chirma nusxasi sug'urtalovchiga ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan materiallar va hujjatlar ilova qilingan holda, sug'urtalovchining dasturiy ta'minoti (mobil ilovasi) orqali elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Haydovchilarning mastlik holatini tekshiruvdan o'tkazish qiymati sug'urtalovchi tomonidan majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha o'rni qoplanishi lozim bo'lgan zarar tarkibiga kiritiladi.

Transport vositalari egalari yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan transport vositalarini ko'rikdan va (yoki) mustaqil ekspertizadan o'tkazish uchun so'rov olingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida sug'urtalovchining so'roviga ko'ra taqdim etishi shart.

Transport vositalarining egalari transport vositalarini sug'urtalovchining yozma rozilgisiz yoki sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash to'g'risida yoxud uni to'lashni rad etish haqida qaror qabul qiladigan kunga qadar ta'mirlashga yoki utilizatsiya qilishga haqli emas.

Sug'urtalovchi yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan materiallar va hujjatlar ilova qilingan holda taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kun ichida sug'urta tovonini to'lash to'g'risida yoki uni to'lashni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Transport vositalarini ko'zdan kechirish, mustaqil ekspertizani hamda o'rni qoplanishi lozim bo'lgan zararning miqdorini belgilash uchun baholashni tashkil etish ushbu moddaning yettinchi qismida ko'rsatilgan muddatda, sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risida xabarnoma tuzilganda jabrlanuvchining transport vositasiga yetkazilgan zarar ushbu Qonun 22-moddasining uchinchi qismida belgilangan sug'urta tovoni miqdordan oshmasligi kerak. Bunda yetkazilgan zarar miqdori yo'l-transport hodisasi haqidagi xabarnoma sug'urtalovchiga taqdim etilganidan so'ng oshgan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta summasining faqat ushbu Qonun 22-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan miqdordan ortiq bo'limgan qismini sug'urta tovoni sifatida to'laydi.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi";

5) **24-modda:**

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“mazkur shaxs yo‘l-transport hodisasi to‘g‘risidagi xabarnoma tuzilganidan keyin to‘rt soat ichida mastlik holatini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o‘tish choralarini ko‘rmagan bo‘lsa yoki yo‘l-transport hodisasi to‘g‘risidagi xabarnomani sug‘urtalovchiga uzrli sabablarsiz o‘z vaqtida taqdim etmagan bo‘lsa”;

**yettinchi xatboshisi** sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin.

**7-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Budjet **kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 7, 431, 433-moddalar; № 12, 783-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 5, 265-modda, № 8, 470-modda, № 9, 588-modda, № 11, 791-modda, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 7, 13-moddalar, 4-songa ilova) **174-moddasiga** quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

**ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti to‘g‘risidagi qonun loyihasining ekspertizasini va o‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o‘tkazishni”;

**o‘n birinchi xatboshidagi** “O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalar” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi missiyalari va vakolatxonalar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

**8-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-460-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual **kodeksiga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, 1-songa 1-ilova, № 10, 672-modda; 2019-yil, № 3, 166-modda, № 5, 261-modda, № 9, 592-modda, № 10, 671-modda, № 11, 791, 792-moddalar, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1, 3-moddalar, № 3, 198, 199-moddalar; 2021-yil, № 1, 8-modda, 4-songa ilova) quyidagi o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritilsin:

1) 178-modda birinchi qismining **4-band**i quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4) qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili), qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’limgan jismoniy shaxslar shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to’lovchi identifikatsiya raqami”;

2) 272-modda birinchi qismining **3-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3) ishda ishtirok etuvchi shaxslar, qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek soliq to’lovchi qarzdor yuridik shaxsning identifikatsiya raqami”;

3) **447-modda** quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to’ldirilsin:

“Ijro varaqasida quyidagilar ko’rsatilishi lozim:

1) ijro varaqasini bergen sudning nomi;

2) ijro varaqasining qaysi ish bo'yicha berilganligi va uning raqami;

3) ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati qabul qilingan sana;

4) undiruvchi va qarzdorning nomi, ularning manzillari; jismoniy shaxslar uchun — qarzdor jismoniy shaxsning tug'ilgan sanasi va joyi, ish joyi, shaxsiy identifikatsiya raqami (O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), yuridik shaxslar uchun esa — soliq to’lovchi identifikatsiya raqami;

5) sud hujjatining qaror qismi;

6) sud hujjati kuchga kirgan sana;

7) ijro varaqasi berilgan sana va uni ijroga topshirish muddati.

Sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasi sudya tomonidan imzolanadi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi”.

**9-modda.** O’zbekiston Respublikasining 2018-yil 24-yanvarda qabul qilingan O’RQ-461-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual **kodeksiga** (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, 1-songa 2-ilova, № 7, 433-modda, № 10, 672-modda; 2019-yil, № 3, 166-modda, № 5, 261, 266-moddalar, № 9, 592-modda, № 10, 671-modda, № 11, 791-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 198-

modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, № 1, 10-modda, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimchalar va o'zgartish kiritilsin:

1) 145-modda birinchi qismining **3-bandi** "yashash joyi" degan so'zlardan keyin "jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqllovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikatsiya raqami" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

2) 196-modda birinchi qismining **2-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqllovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikatsiya raqami";

3) 337-modda birinchi qismining **4-bandi** "yashash joyi" degan so'zlardan keyin "qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqllovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikatsiya raqami" degan so'zlar bilan to'ldirilsin.

**10-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvarda qabul qilingan O'RQ-462-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, 1-songa 3-ilova, № 10, 672-modda; 2019-yil, № 5, 261-modda, № 9, 592-modda, № 11, 791-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 198-modda; 2021-yil, № 1, 9-modda, 4-songa ilova) 279-moddasi birinchi qismining **4-bandi** "yashash joyi" degan so'zlardan keyin "qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqllovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikatsiya raqami" degan so'zlar bilan to'ldirilsin.

**11-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi O'RQ-546-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 384-modda, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilsin:

#### 1) 4-moddaning:

**ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O’zbekiston Respublikasi Davlat budgeti (bundan buyon matnda Davlat budgeti deb yuritiladi) to’g’risidagi qonun loyihasining ekspertizasini va o’rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o’tkazish”;

**beshinchi xatboshisidagi** “zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash orqali” degan so’zlar chiqarib tashlansin;

2) 9-moddaning **uchinchi qismidagi** “Davlat budgetining va davlat maqsadli jamg’armalari budgetlarining, soliq hamda budget siyosati asosiy yo’nalishlarining loyihalari” degan so’zlar “Davlat budgeti to’g’risidagi qonun loyihasi va o’rta muddatli davr uchun fiskal strategiya” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

3) 13-moddaning **beshinchi xatboshisidagi** “Hisob palatasining vakolatlariga kiradigan masalalar bo’yicha” degan so’zlar “Hisob palatasi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlar doirasida” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

4) 17-moddaning **ikkinchi qismidagi** “budget hamda smeta-shtat intizomini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar haqidagi” degan so’zlar “budget va smeta-shtat intizomining, shuningdek davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarining aniqlangan buzilishlari haqidagi” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

5) **20-modda** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“20-modda. Hisob palatasining Davlat budgeti to’g’risidagi qonun loyihasi ekspertizasini va o’rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o’tkazish sohasidagi funksiyalari**

Hisob palatasi Davlat budgeti to’g’risidagi qonun loyihasi ekspertizasini va o’rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o’tkazish sohasida:

Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg’armalari budgetlari loyihasining shakllantirilishini ularning ko’rsatkichlari asosliligini aniqlash maqsadida, ularning daromadlarini prognoz qilish hamda xarajatlarni rejalashtirish, qarz siyosati va budgetlararo munosabatlar sifatiga baho berish maqsadida o’rganishni va tahlil qilishni amalga oshiradi;

Davlat budgeti to’g’risidagi qonun loyihasi va o’rta muddatli davr uchun fiskal strategiya bo’yicha xulosa beradi”;

6) 23-moddaning **nomidagi** va **birinchi xatboshisidagi** “zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

7) 24-moddaning **beshinchi xatboshisidagi** “O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalar” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi missiyalari va vakolatxonalar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) **30-modda:**

**yettinchi xatboshisidagi** “o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan” degan so‘zlar “o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlar doirasida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

**to‘qqizinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat budgeti to‘g’risidagi qonun loyihasi va o‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiya bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi”;

**o‘n ikkinchi xatboshisidagi** “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida” degan so‘zlar “belgilangan tartibda” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi yigirma ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi”;

9) 35-moddaning **birinchi qismidagi** “Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari, soliq va budget siyosatining asosiyo‘nalishlari loyihalari parametrlari shakllantirilishini tahlil qilish” degan so‘zlar “Davlat budgeti to‘g’risidagi qonun loyihasi ekspertizasi va o‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlili” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

**12-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan “Davlat boji to‘g’risida”gi O‘RQ-600-sonli **Qonuniga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 201-modda, № 5, 298-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova) quyidagi o‘zgartish va qo’shimchalar kiritilsin:

1) 8-moddaning **birinchi qismi:**

**20-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“20) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning joylardagi organlari — atrof-muhitni ifoslantirganlik, tabiatdan o‘zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi, shuningdek qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari uchun majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan”;

quyidagi mazmundagi 41-band bilan to‘ldirilsin:

“41) O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi — O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan da‘volar, arizalar va shikoyatlar yuzasidan”;

2) 9-moddaning **birinchi qismi**:

quyidagi mazmundagi 14<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“14<sup>1</sup>) davlat organlari — o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan”;

**26-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“26) O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi — O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan da‘volar, arizalar va shikoyatlar yuzasidan”;

3) 10-moddaning **birinchi qismi** quyidagi mazmundagi 16-band bilan to‘ldirilsin:

“16) O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi — O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan arizalar (shikoyatlar) yuzasidan”;

4) **11-modda** quyidagi mazmundagi 18-band bilan to‘ldirilsin:

“18) O‘zbekiston Respublikasi yoki chet davlatlar hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagи ofatlar (turar joylarning yoki yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarning yong‘ini, qulashi, transport vositalarining yonishi) yuz berganligi natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar — ularga hujjatlarning dublikatlari, ko‘chirma nusxalari, notarial harakatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish reyestridan ko‘chirmalar berilganligi uchun”;

5) 12-moddaning **5-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5) O‘zbekiston Respublikasi yoki chet davlatlar hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy

tusdagi ofatlar (turar joylar yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylar yong'ini, qulashi, transport vositalarining yonishi) yuz bergenligi natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar — ularga takroriy guvohnomalar bergenlik uchun”;

6) **13-modda:**

**nomi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“13-modda. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda berishda davlat bojini to‘lashdan ozod qilish”;**

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi yoki chet davlatlar hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (turar joylarning yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylarning yong'ini, qulashi, transport vositalarining yonishi) yuz bergenligi natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar yo‘qolgan yoxud yaroqsiz holga kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi identifikatsiyalovchi ID-kartasi (biometrik pasporti), O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxsning identifikatsiyalovchi ID-kartasi (yashash uchun ruxsatnomasi), O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish uchun biometrik pasporti, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘limgan shaxsning xorijga chiqish uchun biometrik harakatlanish hujjati o‘rniga tegishinchalish shunday ID-karta, biometrik pasport berilganligi uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha bo‘lib turgan chet davlat fuqarosiga yoki fuqaroligi bo‘limgan shaxsga pasportning yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatning hamda O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish to‘g‘risidagi hujjatning yo‘qolganligi haqida ma’lumotnomalar berilganligi uchun davlat bojini to‘lashdan ozod qilinadi”;

7) **14-modda** quyidagi mazmundagi 9<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“9<sup>1</sup>) O‘zbekiston Respublikasi yoki chet davlatlar hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (turar joylarning yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylarning yong'ini, qulashi, transport vositalarining yonishi) yuz bergenligi natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar ularning yo‘qolgan hujjatlarini yoxud qonunchilik hujjatlarida belgilangan, yaroqsiz holga kelgan, muayyan faktni tasdiqlaydigan hujjatlarini tiklash chog‘ida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini yoki konsullik muassasalarini tomonidan ushbu hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini, dublikatlari hamda ularning mavjudligi haqidagi ma’lumotnomalar talab qilib olinganda”.

**13-modda.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:  
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;  
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z  
normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor  
qilishlarini ta'minlasin;  
ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda  
mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

**14-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran  
kuchga kiradi.

Ushbu Qonun 1-moddasining **2-band**, 3-moddasining **1 — 10** va **12-bandlari, 6-moddasi** ushbu Qonun kuchga kirgan kundan  
e'tiboran uch oy o'tgach amalga kiritiladi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 25-avgust,  
O'RQ-711-son

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son)*